



## MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MILLIY RUH TASVIRI

Meretgeldiyeva Aygul

NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8219989>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-July 2023 yil

Ma'qullandi: 28-July 2023 yil

Nashr qilindi: 07-August 2023 yil

### KEY WORDS

*milliy ruh mehnat, dehqon,  
ma'naviy boyluk, ilohiy intizom,  
xalq falsafasi.*

### ABSTRACT

*Milliylik va o'ziga hoslik, she'rlarning teran mazmuniligi, mehnat va rohat, qalb uyg'unligi, Vatanga muhabbat va sadoqat.*

She'r va shoir umuman bir-biridan ayirib va tasavvur qilib bo'lmaydigan et va tirnoqdir. Malumki, she'r-shoir olamining mohiyati, u ijodkorning muayyan makayfiyati, kechinmasidan dunyoga keladi. Shoir kechinmalarining qog'ozga qay shakilda ko'chishi esa uning tafakkuri yusunidani darak beradi, she'rlarida o'zini namoyon qiladi. Hususanda, Muhammad Yusuf ijodida milliy ruhning halqona yo'lda namoyon bo'lishi shoirning fikrlashi, turmush tarzi, dunyoqarashi, binobarin, ruhiyatidagi to'lqinlar, hissiyot mavjlarini boshqacha ifodalay olmasligi dalolatidir:

Yer aylanar,  
Yer aylanar,  
Yer aylanib tinmaydi.  
Yaktagingning yenglaridan  
Ter yugurib tinmaydi,  
Qo'ling tegmay bu dunyoda  
Bitta giyoh unmaydi,  
Tin bilmagan jonim mening,  
Bobodexqonim mening.

“Bobodexqonim” she'ridan olingan bu parchada yer aylanar jumlasini takrori bilan ba'diy asar yaratilgan. Yani yerning aylanishi to'xtamaydigan uzluksiz jarayondir, yer yugurib tinmaydi. Shunga o'xshash dehqonning qilayotgan mehnatlari ham yil- o'n ikki oy uzluksiz davom etadi. Davom etganda ham dehqondan astoydil ter to'kib ishlashni, chinakam mehnat qilishni talab etadi. Bobodehqonning ishlab charchamagan badanidan esa ter yugurib tinmaydi. Yer aylanishi qanchalar tabiiy va hayotiy zarur hodisa bo'lganidek, dehqon terining quyulib tinmasligi ham shunchalik ahamiyatga molikdir. Negaki, yer o'z o'qi atrofida, bir soniya bo'lsa-da, aylanishdan to'xtasa, muvozanati, ilohiy intizom buziladi. Tiriklik tartiboti xatto yo'q bo'lib ketishi ham mumkin. Shu sababli yerning to'xtab dam olishga haqqi yo'q, u yugurib

charchamaslikka mahkum. Bobodehqon ham bir daqiqa bo'lsa -da, mehnatdan to'xtab olmaydi. Chunki uning zimmasida odamzodni zarur mahsulotlar bilan ta'minlash, yashash uchun sharoit yaratishdek zalvorli mas'uliyat bor. Hayotning yozilmagan qonuni tusini olgan bu zarurat ma'nosini shoir to'rtgina misraga juda ixcham, ammo teran joylay olgan:

Oftob chiqar,  
Oftob botar,  
Chug'lar sochib tanangga,  
Bir kungina bormay qoysang  
Nima qilar dalangga?..

O'zbekning buyuk o'g'li bo'lgan Muhammad Yusufning samimiy she'rlari ohangrabo qo'shiqlarga aylanib, har bir o'zbek xonadoniga kirib brogan lirik shoir XX1 asr o'zbek adabiyotida so'nmas yulduz bo'lib har bir dillarda porlaydi. Shoir o'z ona vanataniga, tabiatga va insoniyatga bo'lgan iliq hissini o'zining yuraklarni larzaga soluvchi, garchand soda tilda yozilgan bo'lsa-da odamni chuqur o'yga chorlovchi she'rlari bilan o'quvchi qalbida o'chmas iz qoldirgan. O'zining she'rlarida milliy ruh tasvirini misilsiz judayam yaxshi tasvirlaydi.

Bir qo'lda belanchak, bir qo'lda Qur'on,  
Bir yelkada ketmon, birida iymon.  
Barchaga barobar oftobsimon,  
Yashasin olam deb, yashaydi O'zbek!

Bu she'rda ham ko'rnib turibdiki, milliylikni yani buyuk o'zbekini, doimo mehnatni kanda qilmaydigan sodda odamlar misolida hamda iymoni doimo butun insonlar deb e'zozlaydi. Chunki, bu insonlar buyuk O'zbekiston Vatanining azizlari.

Har bir o'zbek qayerda yashamasin, qanchalar qulay sharoitda bo'lmasin, xamisha tug'ilib o'sgan makoniga intilib yashaydi. O'zbeklarda kindik qoni to'kilgan ona tuproqqa mehr o'zgarmas, shu qadar turg'un, boqiydir. Bunday holatning chizgisi jimjimador, kitobiy so'zlar bilan emas, balki oddiy, teran, xalqona so'zlar vositasida amalga oshirilgan. Shoir xalq falsafasini yaxshi idrok etadi, ich-ichidan xis etib yashaydi. Uning har bir tashbehi, qo'llagan so'zi, qalam urgan mavzusi bevosita xalq hayoti, tafakkuri, muammolari, quvonchlaridan oziqlangan. Su bois Muhammad Yusuf she'rlari xalq qalbidan mangu o'rin olgan, shoir ruhi kabi umri boqiydir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rano Tolipova "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent-2004
- 2.WWW.Ziyonet.uz